«KAMOLOT» KUTUBXONASI

Daniyel Defo

# Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari



«KAMOLOT» KUTUBXONASI

Daniyel Defo

# Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari



YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2014

Kitobxon.Com

**UO‘K: 821.512.133-31**
**KBK: 84 (4Ingliz)**
**D-46**

**Defo, Daniyel.** Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari/roman. — T.: Yangi asr avlodi, 2014. – 208 b.

ISBN 978-9943-27-360-3

Atrofingda sen bilan dardlashadigan, umuman, muloqot qiladigan kimsa yo‘q, go‘yo olamda faqat yakka o‘zing va bir qancha jonivorlar. Barcha tashvishlar-u kulfatlarga faqat shu jonivorlargina guvoh. Orzu-xayollar, iztiroblar, sog‘inch hissi seni sira tark etolmaydi.

Yigirma sakkiz yil kimsasiz, to‘rt tomoni bepoyon ummon bo‘lgan orolda yashagan Robinzon Kruzoning sarguzashtlarga boy kechmishi kitobxonni befarq qoldirmaydi, shuningdek, voqealarning oddiy va kutilmagan holatlar bilan bayon qilinishi qiziqtirishi tabiiy.

Bir necha yuz yillardan beri qayta-qayta nashr etilib, qo‘ldan tushmay kelayotgan dunyoga mashhur ushbu kitob siz, azizlarga manzur bo‘ladi, degan umiddamiz.

**UO‘K: 821.512.133-31**
**KBK: 84 (4Ingl)**

Rus tilidan
Yo‘ldosh SHAMSHAROV tarjimasi

ISBN 978-9943-27-360-3

© Daniyel Defo, «Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari». «Yangi asr avlodi», 2014-yil.

Kitobxon.Com

## *Birinchi bob*

## ROBINZONNING OTA-ONASI HAMDA UNING O'Z UYIDAN QOCHIB KETGANI HAQIDA

Men bolalik chog'imdanoq dengizni olamdagi hamma narsadan ham yaxshi ko'rib qoldim. Uzoq safarga jo'nab ketayotgan har bir matrosga hasad qildim. Bir necha soatlab dengiz bo'yida turib, o'tib ketayotgan kemalarga ko'z uzmay qarab qolardim.

Mening bu qilig'im ota-onamga sira yoqmadi. Keksa, dardchil otam mening katta amaldor bo'lishimni, qirol mahkamasida xizmat qilib, katta maosh olishimni istar edi. Men esa dengiz sayyohi bo'lishni orzu qilar edim. Dengiz va okeanlarda kezib yurish, nazarimda, buyuk bir baxt edi.

Mening niyatlarimni otam sezib qoldi. Kunlardan bir kun u meni chaqirib oldi va darg'azab bo'lib bunday dedi:

– Men sezib yuribman: sen uydan qochib ketmoqchisan. Esingni yema. Sen hech qayoqqa jilmagin. Agar uyda qolsang, men sening mehribon otangman, qochib ketsang – oq qilaman – baloga giriftor bo'lasan! U qaltiroq va xasta ovoz bilan qo'shib qo'ydi: – Bemor onangga rahming kelsin... U sendan ajralib qolsa, farzand dog'iga chiday olmaydi.

Uning ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi. Otam meni juda sevar va menga yaxshiliklar tilar edi.

Cholga juda rahmim keldi, uydan hech qayoqqa jilmaslikka, dengiz sayohatlari to'g'risida o'ylamaslikka qat'iy qaror qildim.

Afsus, oradan bir necha kun o'tar-o'tmas, bu yaxshi niyatlarimdan nom-nishon qolmadi. Ko'ngil yana dengiz qirg'oqlarini tusay boshladi. Machtalar, to'lqinlar, kema chodirlari, baliqchi qushlar, mayoqlarning chiroqlari tushlarimga kira boshladi.



Kitobxon.Com

Otam bilan gaplashgandan ikki-uch hafta keyin yana qochish fikriga tushdim. Oyimning xotirjam va xursand paytini topib, oldiga kirdim-da, ehtirom bilan gapirdim:

– Men o‘n sakkizga kirdim, endi mahkama ishini o‘rganishdan naf chiqmaydi. Mabodo, biror joyga xizmatga kirsam ham, baribir, bir necha kundan keyin uzoq mamlakatlarga qochib ketaman. O‘zgalarning yurtlarini borib ko‘rish, Afrikani ham, Osiyoni ham kezib chiqish uchun ishtiyoqim shuncha zo‘rki, biror ishga joylashganimda ham u ishni o‘rganishga qunt qilolmayman. Sizdan o‘tinaman, hech bo‘lmasa, oz vaqt dengizda yurib, o‘zimni sinab ko‘rish uchun otamdan ijozat olib bering; agar dengizchilar hayoti yoqmasa, uyga qaytib kelaman va keyin, o‘layin agar, hech qayoqqa jilmayman. Otam o‘z xohishi bilan rozilik bersin, yo‘qsa, uning ruxsatini olmayoq ketishga majbur bo‘laman.

Oyim mendan juda xafa bo‘lib, bunday dedi:

– Hayronman, otang bilan gaplashganingdan keyin qanday qilib tag‘in shu haqda o‘ylay olasan axir! Otang dengiz sayohatini butunlay esingdan chiqargin, degan edi-ku. Axir qaysi ishning boshini tutishing kerakligini u sendan yaxshi biladi-ku. O‘zingni xarob qilging kelsa, hoziroq jo‘nab ketaqol, ammo amin bo‘lginki, sening sayohatingga otang bilan ikkimiz aslo rozilik bermaymiz. Onam bu ishda yordam beradi, deb chakki o‘ylabsan. Lekin bu gaplaringni bittasini ham otangga aytmayman. Yo‘q, keyinchalik, dengizda yurib muhtojlik ko‘rganingda, jafo chekkaningda oyim yo‘l qo‘ygan edi, deb meni ayblashingni istamayman.

Ko‘p yillardan keyin bilsam, oyim ishqilib o‘sha gapimizning hammasini oqizmay-tomizmay otamga aytibdi. Otam xafa bo‘lib va og‘ir nafas olib, unga bunday debdi:

– O‘g‘lingni dardini bilolmadim. O‘z yurtimizda u qiyinchilik ko‘rmay muvaffaqiyat qozonishi va baxt topishi mumkin. Biz boy-badavlat bo‘lmasak ham, uncha-muncha pulimiz bor. U hech narsaga muhtoj bo‘lmay, bahuzur biz bilan yashasa bo‘ladi. Agar u elma-el kezib ketadigan bo‘lsa, haligacha odam bolasi boshiga tushmagan musibatlarga duchor bo‘ladi. Yo‘q, men uning dengizda yurishiga ijozat berolmayman. Vatandan

narida u yolg‘iz qoladi, mabodo, biror falokat yuz bersa, unga taskin beradigan do‘st topilmaydi. U vaqtda o‘z mulohazasidan pushaymon yeydi-yu, ammo o‘kinishi befoyda bo‘ladi!

Shunga qaramay, men bir necha oydan keyin o‘z uyimizdan qochib ketdim. Voqea bunday bo‘ldi: bir o‘rtog‘im otasining kemasida Londonga boradigan bo‘lib qoldi. U, kemaga bepul tushib borasan, deb meni o‘zi bilan borishga unday boshladi.

Shunday qilib, otamdan ham, oyimdan ham ruxsat olmay – yomon bir vaqtda – 1651-yil 1-sentabrda Londonga jo‘nab ketayotgan kemaga tushdim.

Bu yaxshi ish emas edi: keksa ota-onamni tashlab ketib, insofsizlik qildim, ularning maslahatlariga quloq solmay, farzandlik burchiga xilof ish qildim. Ko‘p o‘tmay, men bu ishimdan qattiq pushaymon bo‘ldim.

## *Ikkinchi bob*

## DENGIZDAGI BIRINCHI HODISA

Kemamiz hali Hamber mansabidan chiqib olmasdanoq shimol tomondan sovuq shamol turdi. Osmonni bulut qoplab oldi. Dengiz mavj ura boshladi.

Men bungacha dengizda hech bo‘lmagan edim, shuning uchun ham lohas bo‘lib, ko‘nglim ayniyverdi. Boshim aylanib, oyoqlarim qaltiray boshladi, yiqilib tushishimga sal qoldi. Katta to‘lqinlar kemaga har gal urilganda, men hozir dengizga g‘arq bo‘lamiz, deb o‘ylar edim. Kema har gal baland ko‘tarilgan to‘lqin ustidan pastga sho‘ng‘iganda, men u endi qaytib ko‘tarila olmasa kerak, der edim.

Agar omon qolsam, qadamlarim yana quruq yerga tegsa, darhol uyga – otam yoniga qaytib boraman va umrim bo‘yi kema palubasiga qadam bosmayman, deb ming bor tavbalar qildim.

Mening bu yaxshi niyatlarim bo‘ron quturib turgan vaqt uchun kifoya qildi, xolos.

Shamol tinib, to‘lqin pasayishi bilan o‘zimni ancha yengil seza boshladim. Durust, hali dengiz kasalidan butunlay xalos

bo‘lolganim yo‘q, lekin kechga yaqin havo ochildi, shamol tamom to‘xtadi, kishini zavqlantiradigan go‘zal kechki payt boshlandi. Quyosh yarqirab chiqdi. Shamolsiz sokin dengiz quyosh nurida shunday go‘zal manzara hosil etdiki, men bunaqa ko‘ngil ochuvchi dilxush manzarani hech qachon ko‘rmagan edim.

Tun bo‘yi rohat qilib uxladim. Ertasiga ham quyosh kechagidek yarqirab chiqdi. Menda kechagi dengiz kasalidan nom-u nishon qolmadi. Ko‘ngil darhol orom topib, dilim xush bo‘ldi va kecha menga shafqatsiz va qo‘rqinchli bo‘lib tuyilgan dengizga hayratlanib tikila boshladim, u bugun juda beozor va orombaxsh edi.

Shu paytda, qasd qilgandek, meni o‘zi bilan birga borishga tashviq qilgan o‘rtog‘im yonimga kelib, yelkamga urdi va:

– Xo‘sh, og‘ayni, kayfiyating qalay? Qo‘rqqaningga imonim komil. Rostini ayt, kecha shabboda turganda xo‘b qo‘rqding-a? – dedi.

– Shabboda deysanmi? Shabboda emish-a? U – quturgan bo‘ron edi-ku. Bunday dahshatli bo‘ronni men tushimda ham ko‘rgan emasman!

– Bo‘ron deysanmi? Esingni yebsan! Seningcha, shu ham bo‘ronda-a? Yo‘q, bu hali holva! Aytmoqchi, sen dengizda birinchi bo‘lishing: qo‘rqqaningga ajablanib bo‘lmaydi... Yur, og‘ayni, yaxshisi sharbat qaynattirib, bir stakandan ichaylig-u, bo‘ronni esdan chiqaraylik. Bunga qara, qanday yaxshi kun! Ajib havo, shunday emasmi?

Xullas, ish hamma dengizchilarga xos shumlikka aylandi: sharbat qaynatildi, men ichib toza mast bo‘libman va hamisha va’da, tavbalarimni, darhol uyga qaytib ketish haqidagi fikrlarimni vinoga g‘arq qilib yuboribman. Dengizda sokinlik paydo bo‘lishi bilanoq to‘lqin yutib yuboradi deb qo‘rqishlarim ham yo‘qoldi va shu ondayoq hamma yaxshi niyatlarimni unutib yubordim.

Oltinchi kuni Yarmut reydiga[1] yetib keldik. Bo‘rondan keyin shamol ro‘paradan urib turdi, shuning uchun biz juda

---

[1] Reyd – kemalar to‘xtaydigan joy.

sekin yurdik. Yarmutda langar tashlashga majbur bo'ldik. Orqadan shamol turishini kutib, yetti-sakkiz kun shu yerda turib qoldik.

Shu kunlarda Nyukasldan reydga ko'p kema kelib to'xtadi. Agar shamol tobora kuchayib bormaganda, besh kundan keyin esa yana ham zo'rayib, dovulga aylanib ketmaganda edi, biz shunchalik uzoq to'xtab qolmay, suv kuchayishi bilan daryoga chiqib olgan bo'lar edik.

Kemamizning langarlari va langar arqonlari mahkam bo'lganidan matroslarimiz juda xotirjam bo'lib, sira parvo qilmadilar. Ular bizning kemamiz har qanday xavf-xatardan xoli deb ishongan edilar va shuning uchun ham butun bo'sh vaqtlarini o'yin-kulgi bilan o'tkazar edilar. Ammo to'qqizinchi kuni ertalab shamol yana kuchaydi va sal o'tmay, dahshatli dovulga aylanib ketdi. Juda sinalgan, tajribali dengizchilar ham qattiq qo'rqdilar. Kapitanimizning goh kayutaga, goh kayutadan chiqib mening yonimdan o'tayotganda ohistagina ovoz chiqarib: «Biz halok bo'ldik! Biz halok bo'ldik! Tamom bo'ldik!» – degan so'zlarini bir necha bor eshitdim. Lekin shunday bo'lsa ham, u o'zini yo'qotib qo'ymadi, matroslarning ishini ziyraklik bilan kuzatib, kemasini qutqarish uchun butun choralarni ko'rdi.

Qo'qqisdan allakim, bizdan nariroqda turgan bir kema g'arq bo'lib ketdi, deb qichqirdi.

Dovul yana ikki kemani langardan surib, ochiq dengizga eltib tashladi. Ularni qanday falokat kutmoqda? Qattiq bo'ron machtalarning hammasini sindirib yuborgan edi.

Kechqurun shturman bilan botsman kapitan yoniga kelib, kemani qutqazib qolmoq uchun oldingi machtani kesib tashlash zarur, deyishdi.

– Bir daqiqa ham kechikib bo'lmaydi! Buyuring, biz uni kesib tashlaylik, – deyishdi ular.

– Bir oz kutaylik, ehtimol bo'ron pasayar, – dedi kapitan.

U machtani kestirishni sira istamas edi, lekin botsman, agar machta qoldiriladigan bo'lsa, kema dengizga g'arq bo'lib ketadi, deb isbot qilgandan keyin, kapitan noiloj rozi bo'ldi.

Oldingi machta (fok – machta) kesilgandan keyin bosh machta (grot – machta) qattiq qimirlab, kemani lapanglata boshladi, oqibatda uni ham kesib tashlashga majbur bo'lindi.

Tun boshlandi. Kemaning ikkinchi qavatidagi omborga tushgan bir matros, kemaga suv kiryapti, deb qichqirdi. Omborga yana bir matrosni yubordilar, u ham, suv to'rt futcha[2] ko'tarilibdi, deb xabar berdi.

Kapitan:

– Hammangiz nasos mashinalar bilan suvni chiqarib tashlanglar! – deb buyruq berdi.

Bu buyruqni eshitib, qo'rqib ketganimdan behud bo'lib qolibman: o'layotgan odamdek karavotga chalqanchasiga cho'zilib qoldim. Lekin matroslar meni turtishib, xushyoqmaslik bilan yotmay, ishla, deb talab qilishdi.

– Shuncha bekor yotganing yetar, tur, ishla! – deyishdi. Men noiloj nasos mashina yoniga kelib, kuchim boricha tirishib suvni sepib tashlashga tutindim.

Shu mahal shamolga bardosh berolmagan kichkina yuk kemalari langarlarini ko'tarib, ochiq dengizga chiqib ketishdi.

Kapitan to'plardan o'q otib, bizning qattiq xavf ostida ekanimizni ularga ma'lum qilishni buyurdi. To'plarning gumburlashini eshitib, men kemamiz majaq-majaq bo'lib ketdi, deb o'yladim. Men qo'rqqanimdan behush bo'lib qoldim. Lekin shu paytda har kim o'zini qutqazib qolish bilan ovora edi, menga hech kim e'tibor ham bermadi, menga nima bo'lgani bilan qiziqmadi ham. Matroslardan biri meni oyog'i bilan surib qo'yib, o'rnimda ishlay berdi. Hamma meni o'ldi deb ishongan edi. Men ancha vaqt shu holda yotdim.

Hushimga kelgandan keyin yana ishga tutindim. Matroslar tinmay ishlasa ham, ombordagi suv tobora ko'paymoqda edi.

Kemaning g'arq bo'lib ketishi aniq edi. To'g'ri, dovul sal pasaya boshlagan bo'lsa ham, lekin gavanga yetib olguncha suv ichida turishga zarracha ham holimiz qolmagan edi.

---

[2] Fut – uzunlik o'lchovi. 30,5 santimetrga teng keladi.

Shuning uchun ham, kapitan biror odam bizni halokatdan qutqazib olar degan umid bilan to'plardan to'xtovsiz otib turdi.

Nihoyat, yaqinimizdagi kichikroq bir kema bizga yordam ko'rsatmoq uchun qayiq yuborishga jur'at qildi. Qayiq xavf-xatarlardan o'tib, bizning kemamizga zo'rg'a yaqinlashdi. Afsuski, biz unga tusholmadik, chunki odamlar bizni qutqazmoq uchun o'z jonlarini ayamay, zo'r berib eshkak eshib qayiqni haydasalar ham, bizning kemamizga olib kelishning hech ilojini qilolmadilar. Biz ularga arqon tashladik. Ular ancha vaqtgacha arqonni ushlay olmadilar, chunki bo'ron arqonni hadeb boshqa tomonga uchirib ketaverdi. Lekin baxtimizga, botirlarning bittasi epchillik ko'rsatdi va ko'p harakatlari zoye ketsa ham, oxiri arqonning uchini ushlab oldi. Shundan keyin qayiqni kemamizning quyrug'iga tortib keltirib, hammamiz unga tushib oldik. Biz ularning kemasiga bormoqchi edik, lekin to'lqinga qarshi yurib bo'lmadi, to'lqin bizni qirg'oqqa qarab olib ketdi. Qayiqni shu tomongagina yurgizish mumkin bo'ldi, xolos.

Oradan chorak soat o'tar-o'tmas bizning kemamiz suvga g'arq bo'la boshladi.

Biz tushib borayotgan qayiqni irg'itib-irg'itib borayotgan to'lqin juda baland bo'lganidan qirg'oqni ko'rib bo'lmas edi. Qayig'imiz to'lqin sirtiga ko'tarilib chiqqan daqiqalardagina qirg'oqqa to'plangan olomonni ko'ra oldik: biz qirg'oqqa yaqinlashgach, bizni suvdan chiqarib olishga tayyorlanayotgan odamlar u yoqdan-bu yoqqa yelib-yugurishar edi. Ammo biz qirg'oqqa juda sekin borar edik.

Ko'p mashaqqatlar tortib, oxiri kechqurunga borib quruq yerga chiqa oldik.

Yarmutga piyoda ketdik. U yerda bizni yaxshi kutib oldilar; shahar aholisi bizning baxtsizlikka uchraganimizni bilib, yaxshi uylar tayyorlab qo'ygan ekan. Bizni lazzatli taomlar bilan mehmon qilishdi, Londongacha yoki Gullgacha yetib olishimizga yetadigan pul ham berishdi.

Mening ota-onalarim Gullda edi, shuning uchun men, albatta, ular yoniga qaytib borishim kerak edi. O'zboshimchalik

Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
https://kitobxon.com/oz/asar/2058 saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
https://kitobxon.com/uz/asar/2058 сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
https://kitobxon.com/ru/asar/2058